

OILA MUQADDASLIGINI TAMINLANISHIDA DINIY-AHLOQIY QADRIYATLARNI O'RNI

Karimov Dilshodjon Komil o'g'li,
Sharopova Gavhar Aldabergenovna talabalari
Ilmiy rahbar: Ibrohimov Farhodjon Anvarjon o'g'li
TVCHDPI Katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada oila, uning nechog'lik muqaddas ekanligi, uni asrab-avaylashimiz kerakligini ochishga harakat qilganman. Dolzarbligini diniy va dunyoviy manbalar asosida yoritib berishga harakat qilingan. So'nggi yillarda jahonda sodir bo'layotgan turli qadriyatlar integratsiyasi globallashuv jarayonlari ta'sirida oila va oilaviy qadriyatlarga bo'layotgan salbiy tahdidlar tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, nikoh muqaddasligi, hadis, sog'lom oila muhiti, oilaviy qadriyatlarga tahdidlar.

Jamiyat taraqqiyoti, xalq farovonligi, kelajak avlodning komil shaxs sifatida kamol topishi jamiyatning o'zagi bo'lmish oilada nechog'lik sog'lom muhit qaror topganligi bilan belgilanadi. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda hech shubhasiz, oilaning o'rnini va ta'siri beqiyosdir. "Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalar poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir"[1].

"Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa jamiyat ham osoyishta, mustahkam farovon bo'ladi. Aksincha oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa halol-xaromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buzuladi, tinchi yo'qoladi, oxir oqibat u chuqur tanazzulga yuz turadi. G'arbdagi ba'zi bir jamiyatlarda Huriyat shaxs erkinligi degan soxta shiorlarni ro'kach qilib olgan ayrim buzg'unchilar "Oilani keragi yo'q, nikoh shart emas, u insonning erkini cheklab qo'yadi degan da'voni ko'tarib chiqishdi[2, 4]. Oila bu vatan ichidagi bir vatan hisoblanadi barcha narsaning bosh bo'g'ini oiladan boshlandi shuning uchun oilamiz tinch farovon, baxtli bo'lsa jamiyatimiz davlatimiz tinch bo'ladi. Ba'zi bir davlatlarda oila degan tushunchaning o'zi yo'q Oilani o'rnini oilaning qanday bo'lishi kerakligi haqida ba'zi davlatlar uchun ahamiyati yo'q chunki ular oila kichik vatan ekani barcha ishlarning boshi oiladan boshlanishi vataning ustuni oila ekanini hali anglab yetishmagan bu haqida bir maqol kelgan "oila tinch-yurt tinch" bu maqolda zamirida ko'p ma'no bor chunki yosh farzandlarimizga tarbiyani vatanga muhabbat tuyg'ularini kim o'rgatadi uning ota-onasi yoshlarimiz vatanga muhabbat tuyg'ularini oiladan o'rganadi. Boshqa davlatlarda masala g'arb davlatlarida bunaqa emas ekanini ko'rishimiz mumkin ularda vatan tuyg'usi degan tushunchalardan yiroqda shuning uchun hozirda g'arb davlatlarida aholi soni keskin kamaymoqda chunki ularda oilani qadrlashmagani e'zozlashmagani hurmat qilishmagani nikohga beparvo bo'lishgani faqat kayfu-safo qilishgani oila qurishni o'ylashmagani uchun ularda bolalar tug'ilishi kamaymoqda asosiy sababi shunda biz oilani qadrlashimiz kichik vatan ekanini unutsak g'arb davlatlaridagi holatlar kuzatiladi. Oila masalasi g'arb davlatlari musulmon olamidani o'rnak olishsa arziydi. Xususan bizning Islom shariati yengilik ustiga bino qilingandir. Bu haqda ko'plab oyat va hadislar mavjud. Xususan "Erkak va ayol, oila, nikoh masalasiga kelsak bu masalalarda Olloh taolo o'z bandalariga yengilikni istagan va ularga oila qurib halol-pok yashashni amr qilgan. Islomda hamma narsa man qilingan u faqat birgina yo'lga ruhsat berilganga o'xshaydi. "Nomahramga qarama, u bilan yolg'iz qolma, uylanmoqchi bo'lsang oldin ahlini roziligini ol, maxr ber, guvoh keltir va h.k-hammasi qiyinchilikdan iboratday tuyuladi"[2, 5]. Bundan ko'rinadiki musulmon olamida ayol va erkak teng ekani bir-birga mos juft tanlashi u bilan umring oxirigacha halol va pok yashashi kerakligi nikoh muqaddas ekani uni buzish harom aralashtir yomon ekani aytilgan o'ziga juft tanlagan inson u bilan umrining oxirigacha birga bo'ladi. Juft tanladingizmi o'zizga unga sovchi qo'yishlik ota-onasini rizoligini olishlik maxr berishlik guvohlar bilan nikoh bog'lamoqlik kerakligi aytiladi. Tanlagan insoni bilan ota-onasi roziligini olmasdan yurish shariatan

xatodir chunki ular yolg'iz qolganda gunoh qilib qo'yishlari mumkin. Bu haqida shunday bir hadis keladi, Ey Ali, nazarga nazarni ergashtirma, uning birinchisi senga zarasiz bo'lsa ham, keyingilari sening zararingadir. Imom Ahmad, Termiziy va Abu Dovud rivoyat qilganlar.

“Qur’oni Karim Nur surasi 30-oyatda shunday deyilgan “Mo‘minlarga ayting ko‘zlarini nomahram ayollarga tikishdan to‘sinlar va avratlarini xaromdan saqlasinlar”[4] deyilgan. Oilaviy nizolar sababli bir qancha oilalarda ajralishlar bo‘layabdi, bolalar yetim qolishayabdi. Islom dini o‘zi go‘zal din bo‘lgani uchun oila ham shunga o‘xshab go‘zal bo‘lishini xohlaydi. Musulmon oila o‘zi qanday bo‘lishi kerak degan savol tug‘iladi: musulmon oilada erkak va ayol o‘zing jufti uchun o‘zini asrashi haromdan nazarini tiyishi faqat o‘zing juftiga mehribon bo‘lishi uni suyushi ardoqlashi ayoli bilan birga yaratganga duo qilishi unga shunday solih va soliha juft bergani uchun yaratganga hamdlar keltirishi bir-birini aybini yashirishi kelin qaynota-qaynonasini o‘z ota va onasiday ko‘rishi kerak jahli chiqanda er ayoliga bosiqlik bilan tushuntirishi kerak.

So‘zimni isboti o‘laroq shariat ahkomlariga qat’iy amal qilgan jamiyatlarda oilalarining mustahkamligi boshqa xalqlarning havasini keltirmoqda. Masalan, “2009-yili Rossiyadagi ba’zi siyosatchilar oila bo‘yicha o‘tkazgan ilmiy tatqiqotlarining natijalarini e‘lon qildilar. Unga ko‘ra Rossiyaning o‘zida oila buzulishi 54,3%ni tashkil qiladi asosan yevropalik xristianlar yashaydigan Taymir viloyatida ajrim-94%, Chukotkada-83%, Koryakda-80%ga yetgan. Rossiyaning musulmonlar yashaydigan hududlarida ajrimlar Chechenistonda 4,3%, Ingushistonda 10%, Dog‘istonda 17%ni tashkil etadi. Ikkisini taqqoslasak orasidagi farq ancha kattaligini ko‘rishimiz mumkin”. [2, 7-8] Bundan ko‘rishimiz mumkinki musulmon dunyosida oilaning o‘rni qaydarajadaligini g‘arb davlatlarda arzimagan sabablari bilan ajrimlar bo‘ladi. Lekin musulmon olamida qanday og‘ir sharoit bo‘lishidan qat’iy nazar ular bir-birlariga sabr toqatda bo‘lib hurmat qilib bir-birini ardoqlashgani uchun ham musulmon oilalarida ajrimlar kam bo‘ladi. Chunki Musulmon olamida oilaning o‘rni kattadir. Bu haqida Qur’oni Karimda Zoriyot surasi 49-oyatda shunday deyilgan “sizlar eslatma olishlariz uchun biz har bir narsani juft-juft qilib yaratik”[6] deyilgan. “Naxl surasi 72-oyatda esa Alloh sizlar uchun o‘zlaringizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o‘g‘il va nabiralar paydo qildi.”[7] Naxl surasida aytilganidek Alloh hamma narsani jamiyki jonzotlarni o‘z jufti bilan yaratgan va ularga o‘zidan voris qoldirish imkonini bergan shu tariqa Alloh barcha insonlarga o‘z naslini saqlab uni kelajakda oila qurib uni davom etirshi uchun ham ularni nikoh o‘qitib oila qurishni buyurgan .

“Bundan ko‘rinib turibdiki Islom olamida oilani o‘rni qanday ekanliki so‘zimni isboti o‘laroq rus muxbirlari rus pravoslav cherkov ruhoniysidan unga bu masalada qanday fikrdaligini so‘rashganda u kishi “Juda to‘g‘ri gap men o‘zimdan yana qo‘shimcha qilamanki, biz oilalardagi ruhiy ma‘naviy tarbiya borasida ham musulmonlardan o‘rnak olishimiz kerak degan javobini bergan. Boshqa ko‘plab davlatlarda ham ajrimlar oila buzulishlari bolalarning otasiz yo onasiz katta bo‘lishi bu eng yomon narsa hisoblanad. Misol uchun AQSHda “2010-yilda eng ko‘p ajrimlar ro‘yhatida eng yuqori o‘rinda turadi, Buyuk Britaniyada esa 6 ta yangi qurilgan oilaga 5 ta buzilgan oila to‘g‘ri kelarkan”. Bu holat butun dunyoda shu bilan birga O‘zbekistonda ham mavjud. “O‘zbekistonda 2021-yilning Yanvar-mart oylarida ajrimlar soni 15,4%ga ko‘paygan eng ko‘p ajrimlar soni Toshkent shahrida qayd etilgan.”[9] “Davlat statistika qo‘mitasini ma‘lumotlariga ko‘ra 2021-yilning dastlabki 3 oyida respublika bo‘yicha 9213 ta ajrim holati qayd etilgan. Taqoslash uchun bu ko‘rsatkich 2020-yilning yanvar-mart oylarida 7,8 mingga teng tashkil etgan. Shuningdek 2021-yilning yanvar-mart oylarida respublikada 59754 ta nikoh holati qayd etilgan. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 10243 taga ko‘p”[10] nikoh va ajrimni taqoslaydigan bo‘lsak ikkisi ham yildan yilga o‘sib bormoqda ajrimlarning ko‘payish sabablari erta nikoh, er-xotin o‘rtasidagi arzimagan janjallar, qaynona-kelin muamolari, hiyonat, farzandsizliklardir. Bularni yana davom etirsa bo‘ladi. Bularni sonini kamaytirishimiz uchun yosh oilala qurayotganlarga islomiy oila qanday bo‘lishi kerakligi bunday oilalarga dunyo havas qilishini nikoh muqaddas ekani tushuntirishimiz kerak. Abdullox ibn Ma’sud roziyallohu anhu shunday degan ekanlar:”Agar o‘n kun umrim qolib, uning oxirida vafot etishim aniq bilsam va menda uylanish imkoniyati bo‘lsa, shu o‘n kun ichida ham fitnadan ehtiyot uchun uylanib olgan bo‘lar edim”, [11] deganlar shu gapni o‘zida ham nikoh gunohdan tiyuvchi narsa ekani uning qanchalar muqaddas ekanini bilib olishimiz mumkin yana bir hadisda shunday deyilgan: Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytadilar: “Halollab olgan ayollaringizni haqlariga rioya qilmoq vafo qilishingiz kerak bo‘lgan shartlar ichida haqliroqdir Buxoriy va Muslim rivoyat qilgan”[12]. Bu hadisni shunday izohlasak bo‘ladi: hamma narsani haloli yaxshi doim yoringa halol bo‘l va vafodor bo‘l vafo qilmasang bevafoqlik qilsang jazolanasan deyilgan. Hozirgi zamonda nikohni muqaddasligiga putur

yetmoqda. Bunday fikrni bizda quyidagi statistik ma'lumotlar uyg'otmoqda: "2020-yilning dastlabki 9 oyida respublika bo'yicha 19979 ta ajrim holatlari qayd etilgan. Bu ko'rsatgich 2019-yilning mos davri bilan solishtirganda 3608 taga kamayganini ko'rishimiz mumkin. Yillar kesimida yanvar-sentabr holatiga ko'ra ajrimlar:"

"2017-yil - 23600 ta

2018-yil - 23800 ta

2019- yil - 23600 ta

2020-yili - 20000 ta" [13]

"Qolgan yillar bilan solishtiradigan bo'lsak 2020-yilda keskin kamayganini ko'rishimiz mumkin 2021- yilda hududlar kesimida ajrimlar soni; Toshkent shahri 1331 ta, kuzatilgan eng kam ajrimlar; Qoraqalpog'iston 288ta, ajrim qayt etilgan".[14] "Solishtiradigan bo'lsak 2017- yildan 2020- yilgacha ajrilar soni yildan-yilga kamayganini ko'rishimiz mumkin."2021-yilning dastlabki 11 oyida 276900 ta nikoh qayd etilgan 2021-yilning 1-dekabr holatiga ko'ra yil boshidan buyon 832400 ta bola dunyoga kelgan."[15]

Er-xotin o'rtasida ajrimlarni kamaytirish uchun davlatimiz ham juda ham ko'p ishlar olib bormoqda misol uchun: "Konstitutsiyamizning 14-bobi oila uchun bag'ishlangan 63- moddada esa oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi".[16] "Bu modda Sudlar to'g'risidagi qonuning 17- moddasiga tayangan xolda Oliy sud pleniumi qaror qiladi. Sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'trof etilgani oila davlat tomonidan himoya qilinishi kafolatlanganligi to'g'risidagi normalar mavjudligi nikoh-oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudlar zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi".[17] Bunda 1-navbatda sudlar oilalarni ajralib ketishiga yo'l qo'ymasligi uchun ajrimga sudga arizani topshirgandan so'ng sud arizani ko'rib chiqib er va xotinga yarashish uchun 6 oy davomida muxlat beradi bunda ham ular qarori o'zgarmasa keyin ajratib yuboradi. Bularning barchasi oilani saqlab qolish uchun qilingan ishlardir.

XULOSA

Oila jamiyat va davlatning asosiy poydevori, oilani nmuqaddas bilish va asrash har bir insonning burchidir. Oilalardagi ajrimlar kamaytirish uchun milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini farzandlarimizga yoshligidan singdirishimiz lozim. Oilani mustahkamlash uchun barcha oila a'zolari, ayniqsa oila boshi bo'lgan erkak milliy va diniy qadriyatlarga munosib tarzda amal qilishiga erishishimiz kerak. Payg'ambarimiz shunday marhamat qiladilar: "Halol narsalar ichida Alloh Taologa eng nafratlanarlisi Allohni g'azabini keltirgan narsa bu - taloqdir". Abu Dovud, ibn Moja rivoyati. Rasululloh sollalohu alayhi vassallam aytdilar: "To'rt xislat payg'ambarlarning sunnatlaridandir: hayo; atir sepish; misvaq ishlatish; nikoh". Termiziy rivoyati. Mana nikohni qanchalar muqaddas ekanini shu yerdan bilsak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
2. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. "Hilol nashr", -Toshkent: 2013. 445-b.
3. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" asari "Hilol nashr" Toshkent-2013-yil. 5-b. Бир мартаба берилса бўлади
4. Qur'oni Karim. Буни тўлдириб ёзиш керак
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila" asari "Hilol nashr" Toshkent-2013-yil. 7-8-b.
6. Qur'oni Karimdan Бир мартаба берилса бўлади
7. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Baxtiyor oila " asari "Hilol nashr" Toshkent-2013-yil. 8-9-b
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/04/07/divorce-stat/uz>
9. <https://kun.uz/uz/news/2021/04/06/ajrimlar-soni-kop-bolgan-hududlar-malum->
10. Imon al-Buxoriy Al-Jomi As-Sahih ishonchli to'plam 3-jild 206- b
11. Imon al-Buxoriy Al-Jomi As-Sahih ishonchli to'plam 3-jild 206- b
12. <https://xs.uz/uz/post/azhrimlar-soni-kamajdimi>
13. <https://daryo-uz.>

14. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
15. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari.